

to a child. Number is used instead of a noun. “Little child” can be understood from context.

### References

1. Dressler, Wolfgang U., and Barbaresi, Lavinia Merlino: Morphopragmatics. Diminutives and Intensifiers in Italian, German, and Other Languages. Berlin, New York: Mouton de Gruyter 1994. P. 114.
2. Schneider, Klaus P.: Diminutives in English. Tübingen: Max Niemeyer Verlag 2003. P. 2.
3. Emerson S. The nursery treasure. – Mexico: Delacorte Press, 2008. – P. 110.
4. <https://www.firstcry.com/intelli/articles/wee-willie-winkie-nursery-rhyme/>
5. <https://digital.nls.uk/special-collections-of-printed-music/archive/87745293?mode=transcription>
6. Trehub S, Trainor L. Singing to infants: Lullabies and play songs. January. 1998
7. <https://www.researchgate.net/publication/285504507>
8. Barbara and Michael Cass-Beggs. Oak publications. London. Folk lullabies of the world. 2014. – P. 28.
9. Jannat Messenger. Lullabies and baby songs. New York. Oak publication. 1988. p18.

### TIBBIYOT TERMINLARINING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI

*Feruza AKBARXODJAYEVA*

*PhD, ToshpTI*

*Annotatsiya. Tibbiyot terminlari eng keng qamrovli va murakkab tizim bo‘lib, ular o‘z navbatida, tibbiyot terminologiyasi doirasidagi leksik-semantik guruhlarni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, tibbiy terminologiya ta’sirchanlikka asoslangan terminlarning butun bir qatlamini o‘z ichiga qamrab oladi.*

*Kalit so‘zlar: termin, terminologiya, termin tizimi, lingvistika, tibbiyot, o‘zlashma, semantika, transformatsiya.*

Tibbiyot termin tizimida shuningdek, ingliz, fransuz, olmon tillaridan o‘zlashtirilgan terminlar ham mavjud bo‘lishiga qaramay, tibbiyot terminlarini asosini lotin tilidan kirib kelgan o‘zlashmalar tashkil qiladi. Shuningdek, tibbiy terminlar yuqori darajadagi motivatsiyaga asoslanib, tibbiyot lug‘atining asosiy qismini sof tibbiyot terminlari tashkil qiladi. O‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan bir qator tibbiyot terminlari rus tili

orqali asl inglizcha, fransuzcha, nemischa, ispancha, italyancha, grekcha, lotincha terminlar rus tilining o‘zi uchun ham o‘zlashma qatlam hisoblanadi.

Terminlar tizimida o‘zlashtirilgan til birliklarining semantik imkoniyatlari borasida tasavvur hosil qilish uchun nafaqat terminlarni semantik xususiyatlari, balki mazmun hosil qilish hamda mazmunni shakllantirish kabi mental jarayonlarni izohlashda metodologiyadan ham foydalanish zarur.

Til kommunikatsiyaning yangi sharoitlariga nisbiy barqarorligini saqlagan holda moslashadi, shuning uchun ko‘pgina sohaviy kommunikatsiyada so‘z va terminlar til taraqqiyotiga xalaqit bermagan holda semantikasi jihatidan doimo o‘zgarib turadi.

Shuni ta’kidlash joizki, **semantik transformatsiya** o‘zlashma terminlar til qatlamida alohida o‘rin egallaydi.

Y. Basaranovichning ta’biricha, “semantik transformatsiya yot tildagi so‘zning yoki terminning retsiyent tiliga to‘liq o‘zlashtirilishidagi muhim shartlardan biridir”<sup>93</sup>.

O‘zlashtirilgan terminlar semantikasini o‘rganib borishda “qadimgi grekcha yoki lotincha so‘z ma’nosining o‘zgarishi biror bir zamonaviy til zaminida sodir bo‘lishini, shu tildan yangi boyitilgan ma’no va mazmun bilan rus tiliga yoki baynalmilal so‘zlar fondi (zaxirasi)ga o‘tishini doimo nazarda tutish kerak”<sup>94</sup>.

O. Ahmedov o‘z tadqiqotida termin til leksik sathining ajralmas uzviy qismi ekanligini, u o‘zining ichki semantik tarkibida katta axborot hajmini saqlashi bilan boshqa so‘zlardan farqlanishi va umumiste’moldagi ko‘p ma’noli so‘zlar muayyan soha terminologiyasiga ko‘chganida, faqat bir ma’noni anglatib, terminlik vazifasini bajara boshlashini izohlab o‘tgan<sup>95</sup>.

So‘z ma’nolari miqdori, uning stilistik mansubligi va qo‘llanish sohasining o‘zgarishi bilan birga leksik ma’noda sodir bo‘ladigan semali jarayonlar o‘zlashma terminlarda ham kuzatiladi.

<sup>93</sup> Басаранович Е. Семантическая активность и функционирование английских заимствований в современном русском языке. <https://euroasia-science.ru/filologicheskie-nauki/>.

<sup>94</sup> Величко О.В. Англо-французские заимствования в русской медицинской терминологии: Автор. дисс. ... канд. филол. наук. – Астрахань, 2010. – С. 14.

<sup>95</sup> Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фанл. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 21.

Lotin tilidan rus va o‘zbek tillariga lotin tilidan o‘zlashtirilgan tibbiyot terminlarini o‘zgarishga uchramagan (o‘zgarmaydigan) hamda transformatsiyalangan (bir soha terminologiyasining boshqa soha terminologik tizimiga o‘tishi) semantikali tarkibiy turlarga ajratishimiz mumkin.

Albatta, terminlarni semantik usulda shakllantirish terminologik lug‘atning muhim boyish manbalaridan biri hisoblanadi. Tibbiyot terminlarining ko‘p qismi yuqorida ta’kidlanganidek, lotin tili asosida yaratilgan. Shuning uchun terminlarning semantik usuldagi o‘zlashtirish jarayonida, xususan, lotin tili asosida yaratilgan terminlarning rus va o‘zbek tillariga o‘zlashtirishda ularning ma’no semantikasini hisobga olgan holda transliteratsiyalanadi (o‘giriladi).

Juda ko‘p hollarda rus va o‘zbek tillari qabul qilayotgan o‘zlashtirma leksika qator o‘zgarishlar (transformatsiya)ga yuz tutadi. Har qanday transformatsiyaga uchragan o‘zlashtirma so‘zlar, odatga ko‘ra semantik, morfologik va fonetik turlarga bo‘linadi.

O‘zlashtirishga xos bo‘lgan eng asosiy semantik o‘zgarishlarga:

- ma’noning torayishi;
- ma’noning kengayishi;
- ma’no ko‘chishi – metaforizatsiya kiritiladi.

O‘zlashmalarda semantik jihatdan ma’noning torayishi yoki kengayishi bilan bog‘liq hodisalar kuzatiladi.

So‘z ma’nosining o‘zgarishi so‘z yasashda eng keng tarqalgan usul bo‘lgani bois rus va o‘zbek tillari leksikasining lotin tili ta’sirida har ikkala tilda ham mavjud bo‘lgan ajnabiy so‘zlar misolida ma’no jihatidan kengayishi keng tarqalgan holdir. Masalan, *gospital* so‘zi (lot.da hospitalis) “asosan harbiylar kasalxonasi” degan ma’noni anglatadi.

Lotin tilidan o‘zlashgan tibbiyot terminlari misolida semantik transformatsiya bo‘yicha quyidagi xulosaga kelish mumkin: rus va o‘zbek tibbiy terminlarini lotin tilidan o‘zlashtirishda ma’no torayishi hamda kengayishi hodisasi kuzatiladi.

O‘zlashtirish jarayonida semantikasi o‘zgarishga uchragan lotin tibbiyot terminologiyasida dastlabki ma’nolari toraygan yoki kengaygan leksemalarni ham

uchratamiz, rus va o‘zbek tili muhitida ular o‘zgacha ma’no kasb etadilar. Bunday turdagi so‘zlar uchta guruhni o‘z ichiga oladi:

1. Semantikasi toraygan o‘zlashma tibbiyot terminlari.
2. Semantikasi kengaytirilgan o‘zlashma tibbiyot terminlari.
3. Semantikasi o‘zgargan o‘zlashma tibbiyot terminlari.

O‘zlashish jarayonida semantik o‘zgarishlarga uchramagan terminlar o‘zlashtirish jarayonidagi eng muhim elementlardan hisoblanadi.

Fikrimizcha, bu manba bo‘lib xizmat qilgan tilga semantik jihatdan muvofiq keladigan o‘zlashtirilgan bir ma’noli leksikadir. Bunday holatni manba tilidan bir so‘zning “mazmun mohiyatini nusxalash”<sup>96</sup> deb nomlash o‘rinli bo‘ladi. Umuman olganda, bu kichik guruh lotin tilidan olingan leksik o‘zlashmalarning keng doirasini o‘z ichiga oladi.

Semantik o‘zgarishlarga uchramagan lotin tilidan o‘zlashgan terminlar sirasiga yana quyidagi terminlarni keltirish mumkin:

Rus tilida: *insulin, mutatsiya, abort, amensiya, perkussiya* va h.k.

O‘zbek tilida: *insulin, mutatsiya, abort, amensiya, perkussiya* va h.k.

Lotin tilidan *amentia, ae, f* termini o‘zini yo‘qotish, es-hushini yo‘qotish ma’nosini anglatadi va rus, o‘zbek tillariga *amensiya* tarzida o‘zlashgan bo‘lib, o‘zini yo‘qotib qo‘yadigan, fikr, nutq va xatti-harakatlarda bog‘lanish, uyg‘unlik bo‘lmaydigan holat ustunlik qiladigan es-hush xiralashuvining o‘ziga xos xili ma’nosini beradi.

Shunday qilib, ushbu o‘zlashmalar lotin tilida umumiste’modagi so‘zlar yordamida yasalgan bo‘lib, asl ma’nosini yo‘qotmagan hamda rus va o‘zbek tillariga o‘zlashish jarayonida ham semantik o‘zgarishlarga uchramagan.

Ma’no torayishi ko‘pincha “o‘zlashtirilayotgan so‘zga xos bo‘lgan barcha semantik komponentlari emas, balki ulardan faqat bittasigina o‘zlashtirilganda yoki ishlatilganda yuzaga keladi”<sup>97</sup>. Ya’ni lotin tilida predmetlar va hodisalarning keng

<sup>96</sup> Саяфи Р.М. Фарсизмы в башкирском языке (фонемный, семантический, морфемно-структурный и морфологический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2020. – С.71.

<sup>97</sup>Тань Ин. Англоязычные заимствования в русском и китайском языках: социопсихолингвистическое исследование. Дисс. ... канд. филол.наук. – Пермь, 2019. – С.35.

ko‘lamini ifodalagan leksema, rus va o‘zbek tillarining leksik tizimida mazmuniy hajmini kamaytiradi va shu doiraga oid faqat alohida tushunchalarni ifodalaydi.

Semantik tarkib torayishining namunasi sifatida rus va o‘zbek tillariga lotin tilidan qabul qilingan *abduksiya, aggravatsiya, botulizm, vena* kabi leksemalarni keltirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Basaranovich YE. Semanticheskaya aktivnost i funkcionirovaniye angliyskix zaimstvovaniy v sovremennom russkom yazike. <https://euroasia-science.ru/filologicheskie-nauki/>.
2. Velichko O.V. Anglo-fransuzskiy zaimstvovaniya v russkoy meditsinskoy terminologii: Avtor. diss. ... kand. filol. nauk. – Astraxan, 2010. – S. 14.
3. Axmedov O.S. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol. fanl. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2016. – B. 21.
4. Sayafi R.M. Farsizmi v bashkirskom yazike (fonemniy, semanticheskii, morfemno-strukturniy i morfologicheskii aspekti: Diss. ... kand. filol. nauk. – Ufa, 2020. – S.71.
5. Tan In. Angloyazichniye zaimstvovaniya v russkom i kitayskom yazikax: sotsiopsixolingvisticheskoye issledovaniye. Diss. ... kand. filol.nauk. – Perm, 2019. – S.35.

## **TIBBIYOT TERMINLARINING O‘ZLASHISH JARAYONI MURAKKAB HODISA SIFATIDA**

*Feruz* **AKBARXODJAYEVA**  
*PhD, ToshpTI*

*Annotatsiya. Ma’lumki, terminologik leksika o‘zlashtirmalar borasida sezilarli o‘tkazuvchan qatlamdir. Bundan tashqari, o‘zlashmalar leksik birlikning etimologiyasi va uning boshqa xususiyatlari, ya’ni ifoda rejasi (morfologik tuzilishi) hamda mazmun rejasi (ko‘pma’ nolilik darajasi) bilan ham bevosita bog‘liq.*

*Kalit so‘zlar: o‘zlashmalar, termin, terminologiya, termin tizimi, lingvistika, tibbiyot, o‘zlashma, semantika, lotin tili.*

Tilning ijtimoiy mohiyati haqidagi qarashlar hech kimda shubha uyg‘otmaydi, biroq tilning ijtimoiy o‘lchamlari muammosini tadqiq qilishga bag‘ishlangan zamonaviy ishlar esa ijtimoiy til munosabatlari va o‘zaro bog‘liqliklar borasidagi nazariy qoidalar